



THE PRACTICE OF REINTEGRATION OF RADICALIZED INDIVIDUALS INTO SOCIETY IN FOREIGN COUNTRIES: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Iroda Shokhitbekovna Akhmedova

Head of Department at the Committee on Religious Affairs of the Republic of Uzbekistan

Researcher at Andijan State Pedagogical Institute

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

E-mail: axmedovaaa0577@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: radicalisation, deradicalisation, reintegration, rehabilitation, social alienation, stigma, social recognition, civic identity, social capital, security.

Received: 08.07.26

Accepted: 09.07.26

Published: 10.07.26

Abstract: This article analyses the socio-philosophical meaning of the reintegration of radicalised individuals into society. Reintegration is not merely a security measure or a process of providing employment to a former prisoner. It entails restoring an individual's place in society, social relationships, legal status, and confidence in the future. The article argues that effective reintegration should combine an individualised approach, engagement with the family, education and employment support, psychological assistance, religious counselling, local community participation, and long-term follow-up. Viewing an individual solely as a source of risk may lead to their further alienation from society. Therefore, reintegration should be based on a balance between security, human dignity, social justice, and civic responsibility.

XORIJIY MAMLAKATLARDA RADIKALLASHGAN SHAXSLARNI JAMIYATGA REINTEGRATSIYA QILISH AMALIYOTI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL

Iroda Shoxitbekovna Axmedova

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita bo'lim boshlig'i. Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi. falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

E-mail: axmedovaaa0577@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: radikallashuv, deradikalizatsiya, reintegratsiya, reabilitatsiya, ijtimoiy begonalashuv, stigma, ijtimoiy tan olinish, fuqarolik identifikatsiyasi, ijtimoiy kapital, xavfsizlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada radikallashgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilishning ijtimoiy-falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Reintegratsiya faqat xavfsizlik chorasini yoki sobiq mahkumni ish bilan taʼminlash jarayoni emas. U shaxsning jamiyatdagi oʻrnini, ijtimoiy aloqalarini, huquqiy maqomini va kelajakka boʻlgan ishonchini tiklashni anglatadi. Samarali reintegratsiya individual yondashuv, oila bilan ishlash, taʼlim va bandlik, psixologik yordam, diniy maslahat, mahalliy hamjamiyat ishtiroki hamda uzoq muddatli kuzatuvni birlashtirishi lozimligi asoslanadi. Shaxsni faqat xavf manbai sifatida koʻrish uning jamiyatdan yanada uzoqlashishiga sabab boʻlishi mumkin. Shu bois reintegratsiya xavfsizlik, inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat va fuqarolik masʼuliyati oʻrtasidagi muvozanatga asoslanishi kerak.

ПРАКТИКА РЕИНТЕГРАЦИИ РАДИКАЛИЗИРОВАННЫХ ЛИЦ В ОБЩЕСТВО В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Ирода Шохитбековна Ахмедова

Начальник отдела Комитета по делам религий Республики Узбекистан

Исследователь Андижанского государственного педагогического института. Доктор философии (PhD) по философским наукам.

E-mail: axmedovaaa0577@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: радикализация, дерадикализация, реинтеграция, реабилитация, социальное отчуждение, стигматизация, социальное признание, гражданская идентичность, социальный капитал, безопасность.

Аннотация: В данной статье анализируется социально-философское содержание реинтеграции радикализированных лиц в общество. Реинтеграция представляет собой не только меру обеспечения безопасности или процесс трудоустройства бывшего заключённого. Она предполагает восстановление места личности в обществе, её социальных связей, правового статуса и уверенности в будущем. Обосновывается необходимость объединения в рамках эффективной реинтеграции индивидуального подхода, работы с семьёй, образования и содействия занятости, психологической помощи,

религиозного консультирования, участия местного сообщества и долгосрочного сопровождения. Восприятие личности исключительно как источника угрозы может привести к её ещё большему отчуждению от общества. Поэтому реинтеграция должна основываться на балансе между безопасностью, человеческим достоинством, социальной справедливостью и гражданской ответственностью.

Kirish. Radikallashuv zamonaviy jamiyatning murakkab ijtimoiy muammolaridan biridir. U faqat diniy yoki siyosiy qarashlarning keskinlashuvi bilan cheklanmaydi. Radikallashuv ko‘pincha shaxsning jamiyatdan begonalashishi, adolatsizlik hissi, ijtimoiy ishonchsizlik, shaxsiy inqiroz va ma’lum guruhga mutlaq bog‘lanishi bilan kechadi. Shu sababli radikallashgan shaxsni jamiyatga qaytarish uchun faqat uning qarashlarini o‘zgartirish yetarli emas. Jamiyatga reintegratsiya qilish shaxsni ijtimoiy hayotga qayta kiritishni anglatadi. Bunda shaxs oila, mahalla, ta’lim muassasasi, mehnat jamoasi va davlat institutlari bilan qonuniy munosabatlarni tiklaydi. U jamiyatning oddiy kuzatuv obyekti emas, balki huquq va majburiyatlarga ega fuqaro sifatida shakllanishi kerak.

Terrorizm bo‘yicha amerikalik tadqiqotchi Jon Horgan radikal yoki terroristik muhitga kirish qaytib bo‘lmaydigan jarayon emasligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, “terrorizmga kirish bir tomonlama yo‘l emas”[1]. Bu qarash radikallashgan shaxsni o‘zgarmaydigan inson sifatida baholash noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatadi. Odam muayyan sharoitda zo‘ravon guruhga kirishi mumkin. Boshqa sharoit yaratilganda esa undan chiqishi ham mumkin.

Shu bilan birga, reintegratsiyani avtomatik va oson jarayon deb tushunish kerak emas. Har bir shaxsning radikallashish sababi, ijtimoiy muhiti va ruhiy holati boshqa-boshqa bo‘ladi. Shuning uchun barcha shaxslarga bir xil usulni qo‘llash kutilgan natijani bermaydi. Dasturning vazifasi shaxsning individual hayot yo‘lini tushunish va qonuniy hayotga qaytish uchun unga mos imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Asosiy qism. Radikallashgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilish zamonaviy xavfsizlik siyosati, inson huquqlari, ijtimoiy adolat va fuqarolik mas’uliyati kesishadigan murakkab masaladir. Mazkur jarayonni faqat ekstremistik yoki terrorchilik faoliyatida qatnashgan shaxsni nazorat qilish, jazoni o‘tab chiqqan fuqaroni ish bilan ta’minlash yoxud uning qarashlarini o‘zgartirish bilan cheklab bo‘lmaydi. Reintegratsiya shaxsning oila, mehnat bozori, ta’lim tizimi, mahalliy hamjamiyat va davlat institutlari bilan uzilgan yoki zaiflashgan munosabatlarini

tiklashni, jamiyatdagi qonuniy maqomini mustahkamlashni va kelajakka nisbatan ijobiy tasavvurini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan u radikallashuv oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan bir martalik tadbir emas, balki uzoq muddatli, ko'p bosqichli va ko'plab institutlar ishtirokini talab qiluvchi ijtimoiy jarayondir. Reabilitatsiya shaxsning ruhiy, ijtimoiy, huquqiy va kasbiy imkoniyatlarini tiklashga qaratilgan bo'lsa, reintegratsiya uning ushbu imkoniyatlar asosida jamiyatning qonuniy institutlari va munosabatlariga qayta qo'shilishini ifodalaydi. Tinka Veldxeyus ta'kidlaganidek, dastur natijasi faqat qo'llangan choraga emas, balki u amalga oshirilgan ijtimoiy va institutsional kontekstga ham bog'liqdir[2].

Zo'ravonlikdan voz kechish bilan dunyoqarashning to'liq o'zgarishi har doim bir vaqtda yuz bermaydi. Shaxs jinoiy javobgarlikdan qo'rqish, oilaviy majburiyatlar, guruh ichidagi nizolar yoki uning faoliyatidan hafsalasi pir bo'lishi sababli zo'ravonlikni to'xtatishi mumkin, biroq ayrim radikal qarashlarini saqlab qolishi ehtimoli mavjud. Jinoiy-huquqiy tizim nuqtai nazaridan zo'ravonlikning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik birlamchi vazifa sanaladi. Uzoq muddatli barqarorlik uchun esa shaxsning fikrlash usuli, ijtimoiy aloqalari, kundalik turmushi va kelajak rejalari ham o'zgarishi kerak. Shuning uchun jazoni ijro etish muassasasidan ozod etish reintegratsiyaning yakuni emas, balki uning yangi bosqichidir.

Erving Gofmanning ijtimoiy tamg'alash haqidagi konsepsiyasi jazoni o'tab bo'lgan shaxsning jamiyatga qaytishida yuzaga keladigan ko'rinmas to'siqlarni tushuntiradi[3]. Shaxsga "sobiq ekstremist", "xavfli inson" yoki "ishonchsiz fuqaro" kabi salbiy yorliqlarning qo'yilishi uning jamiyatdagi mavqeyini pasaytiradi. Bunday munosabat uning ishga joylashishi, ta'lim olishi, uy-joy topishi va mahalliy hamjamiyat bilan aloqalarini tiklashini qiyinlashtiradi. Ayrim hollarda salbiy munosabat uning oila a'zolari va farzandlariga ham ta'sir qiladi. Natijada shaxs qonuniy hayot qurish imkoniyatiga ishonmay qolishi, ilgari mansub bo'lgan radikal guruh esa unga yana tegishlilik va himoya hissini taklif qilishi mumkin. Shu sababli reintegratsiya nafaqat shaxsning o'zgarishini, balki jamiyatning ham uni qonuniy ijtimoiy hayotga qayta qabul qilishga tayyor bo'lishini talab etadi.

Robert Patnemning ijtimoiy kapital konsepsiyasiga ko'ra, jamiyatdagi ishonch, hamkorlik va barqaror aloqalar shaxsning ijtimoiy hayotga qo'shilishida muhim o'rin tutadi[4]. Radikal guruhlar ham o'z a'zolari o'rtasida kuchli birdamlikni shakllantiradi. Biroq bunday birlik ko'pincha boshqa guruhlariga nisbatan dushmanlik va "biz-ular" qarama-qarshiligiga asoslanadi. Shu sababli shaxsni radikal guruhdan ajratishning o'zi yetarli emas. Uning oila, qo'shnilar, hamkasblar, ta'lim muassasalari va mahalliy hamjamiyat bilan yangi, qonuniy va ijobiy aloqalarini shakllantirish zarur. Shaxsning faqat nazorat organlari bilan aloqada bo'lishi uning jamiyatga

to'liq qaytganini anglatmaydi. Reintegratsiyaning haqiqiy natijasi kundalik hayotdagi ishonch va hamkorlik orqali namoyon bo'ladi.

Amartya Senning imkoniyatlar yondashuvi ham reintegratsiyaning mazmunini tushuntirishga yordam beradi[5]. Shaxs huquqiy jihatdan erkin bo'lishi mumkin, ammo u ta'lim, kasb, daromad, turar joy va tibbiy yordam imkoniyatidan mahrum bo'lsa, qonuniy hayotni amalda erkin tanlay olmaydi. Demak, reintegratsiya shaxsga faqat "to'g'ri yo'lni tanlash" talabini qo'yishdan iborat emas. Unga kasb o'rganish, ishga joylashish, ruhiy yordam olish, oilaviy munosabatlarini tiklash va jamiyat hayotida qatnashish uchun real sharoit yaratish lozim.

Daniyada shakllangan "Arhus modeli" reintegratsiyaning ko'p tarmoqli yondashuvga asoslanishi zarurligini ko'rsatadi. Unda maktab, ijtimoiy xizmat, psixolog va mahalliy boshqaruv organlari hamkorlik qiladi. Shaxs bilan ishlash faqat mafkuraviy suhbat bilan cheklanmaydi. Uning ta'limi, bandligi, uy-joyi, oilaviy muammolari va ruhiy holati ham individual reja asosida ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda shaxsga murabbiy biriktirilib, u kundalik muammolarni hal qilish va qonuniy hayot rejasini tuzishda yordam beradi. Preben Bertelsenning tahliliga ko'ra, Daniya modelida profilaktika, radikal muhitdan chiqish, huquqiy javobgarlik va xavfsizlik choralari bir-birini to'ldiradi[6].

Arhus modelining muhim jihati shundaki, davlat radikallashtirish shaxsni faqat xavf manbai sifatida ko'rmaydi. Unga qonuniy fuqarolik hayotiga qaytish imkoniyati ham beriladi. Biroq bu jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish degani emas. Reintegratsiya jazo o'rnini bosmaydi, balki shaxsning yana zo'ravonlik yo'liga qaytishiga sabab bo'ladigan omillarni kamaytiradi. Mazkur tajribaning asosiy sabog'i yumshoq munosabat emas, balki nazorat va yordamni shaxsning xavf darajasi hamda ehtiyojiga moslashtirishdir.

Germaniyadagi EXIT-Germany va HAYAT kabi dasturlar shaxsning ekstremistik guruh bilan aloqalarini uzishi, oilasi bilan munosabatlarini tiklashi va yangi hayot rejasini shakllantirishiga yordam beradi. Daniyel Kyoler radikallashtirish jarayonida shaxsning dunyoqarashi torayib, murakkab muammolarni faqat bitta sabab va bitta yechim orqali tushuntira boshlashini qayd etadi[7]. Bunday holatda zo'ravonlik muammoni hal qilishning yagona vositasidek ko'rinishi mumkin.

Reintegratsiyaning vazifasi shaxs dunyoqarashini qayta kengaytirishdir. U o'zini faqat radikal guruh a'zosi yoki "sobiq ekstremist" sifatida emas, ota, ona, farzand, mutaxassis, talaba, qo'shni va fuqaro sifatida ham anglay boshlashi kerak. Shaxsda qonuniy va mazmunli ijtimoiy rollar qancha ko'paysa, uning radikal identifikatsiyaga qaytish ehtimoli shuncha kamayadi. Bunday ishning muvaffaqiyati mutaxassis bilan ishonchli munosabat o'rnatilishiga bog'liq. Shu

sababli maslahatlarning maxfiyligi, mutaxassislarning malakasi va professional etika muhim ahamiyatga ega.

AQShda yagona markazlashgan reintegratsiya modeli mavjud emas. Sudlar, probatsiya xizmatlari, psixologlar, ilmiy markazlar va mahalliy tashkilotlar turli dasturlar doirasida ishlaydi. AQSh tajribasining muhim jihati dasturlar samaradorligini ilmiy baholashga e'tibor qaratilishidir. Jon Horgan va Kurt Breddok ko'plab deradikalizatsiya dasturlarida muvaffaqiyatni aniqlash uchun yagona va ishonchli mezonlar yetishmasligini ta'kidlaydi[8].⁵

Saudiya Arabistoni tajribasida diniy maslahat, psixologik yordam, kasbiy tayyorgarlik, oila bilan ishlash va ozodlikdan keyingi moddiy ko'mak birlashtirilgan. Kristofer Bousek ushbu modelni profilaktika, reabilitatsiya va ozodlikdan keyingi qo'llab-quvvatlashdan iborat tizim sifatida tavsiflaydi[9]. Diniy mutaxassislar zo'ravonlikni oqlash uchun noto'g'ri talqin qilingan diniy qarashlarni muhokama qiladi. Psixolog va ijtimoiy xodimlar esa shaxsning ruhiy holati, oilaviy munosabatlari va kelajak rejalari bilan ishlaydi. Mazkur model ish, turar joy va oilaviy yordamni xavfsizlikdan ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi. Biroq dastur talablariga tashqi tomondan rioya qilish har doim ham shaxs dunyoqarashining o'zgarganini anglatmaydi. Umar Ashurning tadqiqotiga ko'ra, deradikalizatsiya jarayonida davlat siyosati bilan birga guruh ichida obro'ga ega bo'lgan shaxslarning zo'ravonlikdan voz kechishga chaqirishi ham muhimdir[10]. Shaxs ishonadigan manba tomonidan zo'ravonlikning diniy va huquqiy jihatdan asossiz ekanligi tushuntirilsa, ichki o'zgarish uchun imkoniyat kengayadi.

Marokashdagi "Moussalaha" dasturi diniy, huquqiy, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarni birlashtiradi. "Moussalaha" so'zi yarashuv ma'nosini anglatadi. Dastur shaxsning davlat, jamiyat, oila va o'z vijdoni bilan munosabatlarini qayta ko'rib chiqishiga qaratilgan. Uning maqsadi jinoyatni unutish yoki javobgarlikni bekor qilish emas. Shaxs o'z qilmishining oqibatlarini anglashi, yetkazilgan zararni tan olishi va kelgusida zo'ravonlikdan voz kechishi kerak. Dastur mahkumlarni ozodlikdan keyingi hayotga tayyorlash va ularning jamiyatga qaytishini yengillashtirishni ko'zda tutadi[11].

Turkiya tajribasi radikallashtirishning dastlabki bosqichida oilaning ishtiroki muhimligini ko'rsatadi. Ahmet Yaylaning tadqiqotiga ko'ra, oila a'zolari yoshlarning xulq-atvoridagi keskin o'zgarishlar, eski do'stlardan uzoqlashish, murosasiz fikrlash va radikal guruhlariga qiziqish kabi belgilarni davlat organlaridan oldin sezishi mumkin[12]. Biroq oila faqat nazorat va axborot berish vositasiga aylantirilmassligi kerak. Aks holda shaxs bilan uning yaqinlari o'rtasidagi ishonch buziladi. Oila psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam bilan ta'minlanishi, uning ishtiroki hamkorlik tamoyiliga asoslanishi lozim.

Indoneziya tajribasi reintegratsiya uzoq muddat davom etadigan jarayon ekanini ko'rsatadi. Bella Vidya qamoqxonada olib borilgan deradikalizatsiya ishlari ozodlikdan keyingi yordam bilan davom ettirilmasa, natija barqaror bo'lmazligini ta'kidlaydi[13]. Mutaxassislar yetishmasligi, idoralararo hamkorlikning sustligi, mahalliy aholining sobiq mahkumni qabul qilmasligi va iqtisodiy muammolar reintegratsiyaga to'sqinlik qiladi. Shu sababli yordam birdan to'xtatilmazligi, balki bosqichma-bosqich kamaytirilishi kerak.

Singapurdagi Diniy reabilitatsiya guruhi radikal qarashlarni diniy dalillar bilan asoslashga qarshi ishonchli ulamolar ishtirokida ishlaydi. Guruh mahkumlar bilan birga ularning oila a'zolariga ham diniy maslahat beradi. Biroq diniy maslahat ish, ta'lim, ruhiy salomatlik va oilaviy muammolarning o'rnini bosa olmaydi. U umumiy reintegratsiya tizimining bir qismi bo'lishi kerak.

Davlat va din munosabatlari ham radikallashuv jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Dilshod Achilov va Renat Shayxutdinovning tadqiqotida nisbatan bag'rikeng diniy siyosat radikal qarashlarning pastroq darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi qayd etilgan[14]. Biroq radikallashuv faqat diniy siyosat bilan belgilanmaydi. Unga iqtisodiy, siyosiy, tarixiy va tashqi omillar ham ta'sir qiladi. Shunga qaramay, qonuniy diniy faoliyatni asossiz cheklash yashirin va nazoratsiz diniy muhitning jozibasini oshirishi mumkin.

Reintegratsiyaning maqsadi shaxsning diniy e'tiqodini yo'q qilish emas. Asosiy vazifa zo'ravonlikni oqlovchi, jamiyatni mutlaq "do'stlar" va "dushmanlar"ga ajratuvchi qarashlarni o'zgartirishdir. Dindorlik va radikallikni bir xil tushuncha sifatida talqin qilish davlatga bo'lgan ishonchni pasaytiradi. Qonuniy diniy ta'lim, huquqiy savodxonlik va ishonchli diniy maslahat esa radikal talqinlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajribalar barcha shaxslarga bir xil dastur qo'llash samarasiz ekanini ko'rsatadi. Reintegratsiya rejasida shaxsning yoshi, jinsi, ruhiy holati, oilaviy vaziyati, ta'lim darajasi, ijtimoiy ehtiyojlari va xavf ko'rsatkichi hisobga olinishi kerak. Shuningdek, reintegratsiya faqat bitta idora tomonidan amalga oshirilmaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, probatsiya, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya, diniy mutaxassislar va mahalliy hamjamiyat o'zaro hamkorlik qilishi zarur. BMT va Yevropa Kengashi hujjatlarida ham qamoqxona, probatsiya, reabilitatsiya va jamiyatga qaytarish o'zaro bog'liq jarayon sifatida qaraladi.

O'zbekiston "Mehr" insonparvarlik dasturi orqali mojaroli hududlardan qaytarilgan ayollar va bolalarni jamiyatga moslashtirish bo'yicha muhim tajribani shakllantirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida beshta "Mehr" dasturi orqali 530 nafardan ortiq fuqaro, asosan, ayollar va bolalar qaytarilganini hamda ularga tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatilganini ta'kidlagan[15].

Reintegratsiya faqat nazorat bilan cheklanmasligi kerak. Mahalla, ta'lim muassasalari, bandlik organlari, psixologlar, diniy mutaxassislar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar yagona reja asosida hamkorlik qilishi zarur. Shaxsning ishga joylashishi, ta'lim olishi, oilaviy munosabatlarini tiklashi va jamiyat hayotida ishtirok etishi reintegratsiyaning muhim natijalaridir. Xorijiy tajribalar reintegratsiyaning barcha mamlakatlar uchun bir xil modeli mavjud emasligini ko'rsatadi. Biroq individual yondashuv, oila bilan ishlash, ta'lim va bandlik, psixologik hamda diniy maslahat, idoralararo hamkorlik va uzoq muddatli kuzatuv samarali dasturlarning umumiy jihatlaridir.

Xulosa. Radikallashgan shaxslarni jamiyatga reintegratsiya qilish uzoq muddatli va murakkab jarayondir. Uning maqsadi shaxsni faqat nazorat qilish emas, balki qonuniy hayotga qaytishi uchun real imkoniyat yaratishdir.

Samarali reintegratsiya xavfsizlik, inson huquqlari va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatga asoslanishi lozim. Nazorat shaxsning dini yoki kelib chiqishiga emas, uning aniq xulq-atvori va xavf darajasiga qarab belgilanadi.

Shaxs zo'ravonlikdan voz kechishi va qonunga rioya qilishi kerak. Davlat esa unga ta'lim olish, ishlash va jamiyat hayotiga qaytish uchun sharoit yaratishi lozim. Jamiyatning uni qonuniy ijtimoiy hayotga qayta qabul qilishi radikallashuvning takrorlanish xavfini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Horgan, J. (2008). "Deradicalization or disengagement? A process in need of clarity and a counterterrorism initiative in need of evaluation." *Perspectives on Terrorism*, 2(4), p - 3–8
2. T. Veldhuis. *Designing Rehabilitation and Reintegration Programmes for Violent Extremist Offenders: A Realist Approach*, International Centre for Counter-Terrorism, 2012, <https://doi.org/10.19165/2012.1.02>.
3. E. Goffman. (1963). *Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity*, Prentice-Hall. p – 18-32
4. R. D. Putnam. (2000) *Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community*, Simon & Schuster. p – 18-33
5. A. Sen. (1999) *Development as Freedom*. p – 22-28
6. P. Bertelsen. (2015) "Danish Preventive Measures and Deradicalization Strategies: The Aarhus Model" p - 241–253.
7. D. Kyoler (2017). *Understanding Deradicalization: Methods, Tools and Programs for Countering Violent Extremism*, Routledge. p – 24-29

8. J. Horgan va K. Breddok (2010) “Rehabilitating the Terrorists? Challenges in Assessing the Effectiveness of De-radicalization Programs”, *Terrorism and Political Violence*, 22(2), 2010, pp. 267–291, <https://doi.org/10.1080/09546551003594748>.
9. K. Bousek. (2008) “Counter-Terrorism from Within: Assessing Saudi Arabia’s Religious Rehabilitation and Disengagement Programme”, *RUSI Journal*, 153(6), , pp. 60–65, <https://doi.org/10.1080/03071840802670106>.
10. U. Ashur. (2009) *The De-Radicalization of Jihadists: Transforming Armed Islamist Movements*, Routledge. P- 37-44
11. V. V. Krasinskiy, “Ресоциализация (дерадикализация, реабилитация и реинтеграция) лиц, возвращённых из зон вооружённых конфликтов”, *Современное право*, 2021, № 8, с. 102–113.
12. A. S. Yayla. (2020) “Preventing Terrorist Recruitment through Early Intervention by Involving Families”, *Journal for Deradicalization*. pp. 1–39.
13. B. Vidya (2020) “Deradicalization in Indonesia: Implementation and Challenge”, *Journal of Terrorism Studies*, 2(1). Article 3. <https://scholarhub.ui.ac.id/jts/vol2/iss1/3/>
14. D. Achilov va R. Shayxutdinov (2013) “State Regulation of Religion and Radicalism in the Post-Communist Muslim Republics”, *Problems of Post-Communism*, 60(5), pp. 17–33, <https://doi.org/10.2753/PPC1075-8216600502>.
15. Sh. M. Mirziyoyev, BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutq, 2023-yil 20-sentabr, O‘zbekiston <https://president.uz/oz/lists/view/6679>